

O'ZBEKISTON TARIXI

1. Zardushtiylik dinidagi quyosh va yorug'lik xudosini toping.
A) *Mitra* B) *Ahriman* C) *Ahuramazda*
D) *Anahita*
2. Quyidagilardan "Sharq Arastusi" nomi bilan shuhrat qozongan allomani toping.
A) *Abu Nasr Farobiy*
B) *Abu Rayhon Beruniy*
C) *Abu Ali ibn Sino*
D) *Muhammad al-Xorazmiy*
3. Qaysi javobda Movarounnahrda mo'g'ul bosqinchilariga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon ko'rsatilgan?
A) *Muqanna qo'zg'oloni*
B) *Mahmud Torobiy qo'zg'oloni*
C) *Rofe' ibn Lays qo'zg'oloni*
D) *Abu Muslim qo'zg'oloni*
4. XII asr oxirida Kubroviya tariqati vujudga kelgan hududni toping.
A) *Samarqand* B) *Buxoro* C) *Xorazm*
D) *Farg'ona*
5. Toshkent shahridagi Ko'kaldosh va Baroqxon madrasalari qaysi sulola davrida bunyod etilgan?
A) *Minglar* B) *Ashtarxoniylar*
C) *Mang'itlar* D) *Shayboniylar*
6. 1512-1770-yillarda Xorazmda qaysi sulola hukmronlik qilgan?
A) *ashtarxoniylar* B) *mang'itlar*
C) *shayboniylar* D) *qo'ng'irotlar*
7. "Jadid" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, qanday ma'noni bildiradi?
A) *"ozodlik"* B) *"davlat"* C) *"yangi"*
D) *"mustamlakachilik"*
8. Quyidagi shaxslardan qaysi biri Turkiston general-gubernatori sifatida **faoliyat yuritmagan**?
A) *K.P.Kaufman* B) *S.M.Duxovskoy*
C) *M.Skobelev* D) *A.Vrevskiy*
9. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishi arafasida mavjud bo'lgan respublikani aniqlang.
A) *Tojikiston SSR* B) *O'zbekiston SSR*
C) *Turkmaniston SSR* D) *Xorazm SSR*
10. Qaysi javobda bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiya nomi to'g'ri ko'rsatilgan?
A) *O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi*
B) *Erk demokratik partiyasi*
C) *O'zbekiston «Vatan taraqqiyoti» partiyasi*
D) *O'zbekiston kommunistik partiyasi*